



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 15-16 (936-937)
12-oktabr, chorshanba
2022-yil

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА

Gazeta 1974-yil
mardan chiga
boshlagan

QALB VA KELAJAK ME'MORLARI

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Ustoz. Mana shu kasb egalarining mehnatlari sabab orzularimiz ummonining to'lqinlariga to'fonlar xavf sololmaydi. Akademikdan alpinistgacha, uchuvchidan sotuvchigacha, aktyordan o'qituvchigacha – har bir kasb egasining qalb qiyofasida uning o'rni beqiyos. Ular tufayli jamiyatda shaxslar kamol topadi.

O'zbek xalqi azaldan “Ustoz otangday ulug” degan naqlga amal qilgan. Ustozga hurmat-ehtirom ko'rsatish – bu azaliy qadriyatga aylan-gan. Yurtimizda har yili 1-oktabr – “Ustoz va murabbiylar kuni” sifatida keng nishonlani. Har yili bayram munosabati bilan soha fidoyilarining mashaqqatli xizmatlari e'tiborga olinib, rag'batlantirib kelinadi.

Davlatimiz rahbari “Ustoz va murabbiylar kuni” arafasida bildirgan samimiyl tilaklari-da ham ustozlarning naqadar sharafli va mas'uliyatli kasb egasi ekanliklariga yana bir bora e'tibor qaratdi. “Biz har birimiz, hayotda qanday mu-

vaffaqiyat va natijalarga erishgan bo'lsak, bunda sizning beqiyos hissangiz borligini doimo minnatdorlik bilan e'tirof etamiz. Aziz muallimalar, muhtaram domlalar, men Yangi O'zbekistonni, ozod va farovon demokratik mamalakatni barpo etishda, siz pedagoglar, professor-o'qituvchilarни o'zim uchun eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman”.

Yoshlarimiz erishayotgan yutuqlarni ko'rganda, vatanimiz bayrog'i baland ko'tarilganda quvonnaydigan yurtdoshimiz bo'lmasa kerak. Yoshlar yutuqlarining bosh sababchisi va ularning yuqori natijalarni qayd etayotgani – bu ustozlarning mehnatidir. Darhaqiqat, shogird misoli bir yo'nilmagan tosh. Ustoz esa mohir sangtarosh. U o'zidagi bor mahorat-u tajribalari bilan bu toshdan nozik shakl yasaydi. Ya'ni, shogirdini hayot yo'llarida qoqilmaydigan, kuchli va sabotli qilib tarbiyalaydi.

Shu o'rinda ustozlarning qay darajada tadbirli va mushihadaga ega ekanligini isbotlaydigan ibratli hikoyani keltirib o'tsam.

Kunlarning birida shogird ustozining yoniga kelib: “Ustoz, siz doim baxtli yashash, omadli

bo'lish haqida gapirasiz. Qiyinchilik damlarida, inson qanday qilib baxtli bo'la oladi? Quvonchni qanday topadi?” – deb so'rabdi.

Ustoz: “Sen shuni yaxshi bilginki, hayot bu – do'l va yomg'irlarning to'xtashini kutilish emas, balki do'l va yomg'ir yog'ayotgan vaqtida ham raqsaga tusha olishdir”? – deb javob beribdi.

Bugun O'zbekiston kelajak sari dadil, ishonchli qadamlar ila odimlamoqda. Yoshlarga qaratilayotgan e'tibor – kelajakka tikilayotgan sarmoya. Kelajak egalarining orzu va kasb xaritalari muallifi – Ustozlardir. Yoshlarning oltinga tenglashtirilayotgan daqiqalari Ustozlar bergen bilim va saboqlar bilan yanada qiymatlidir

Yo'ldan adashgan sayyohga yo'l ko'rsatuvchi zuhro yulduz kabi shogirdlarining aql mash'ali bo'lgan bu insonlarga hamisha ta'zimdamiz.

Shu ma'noda, institutimizda talaba-yoshlarga chin ko'ngildan ta'lim-tarbiya berib kelayotgan har bir ustozni, jamoamizning fidoyilarini kasb bayrami bilan muborakbod etaman. Millat va kelajak oldida doim yuzingiz yorug' bo'lsin, aziz Ustozlar!

TA'ZIM SIZGA – AZIZ USTOZLAR

Ma'lumki, 1-oktabr jamiyatimizning har bir a'zosi uchun alohida maqomdagi sana. Oq va qora, yaxshi va yomon, xato va to'g'ri nisbatlar o'rtasidagi farqni shu sana qahramonlarining mehnatisiz ajratolmaymiz. 1-oktabrni shu sababga ko'ra ham yurtdoshlarimiz o'zgacha shukuhda kutib oladi.

Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ham 1-oktabr – “Ustoz va murabbiylar kuni” munosabati bilan “Ta'zim sizga – aziz Ustozlar” nomli tadbir bo'lib o'tdi. Bayram kechasida institutning Yoshlar ishlari bo'yicha prorektori M.A.Ahmedova, TPTI klinikasi

bosh shifokori A.A.Jalilov, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i A.Q.Xudayberdiyev, xodimlar kasaba uyushmasi raisi A.M.Mannonov hamda kafedralarning professor-o'qituvchilari, xodimlar va talabalar ishtirok etishdi.

Tadbirda so'zga chiqqan TPTI klinikasi bosh shifokori A.A.Jalilov jonkuyar ustozlarga oilaviy baxt, ish faoliyatlarida shijoat va g'ayrat tilab, rektorat nomidan bayram bilan tabrikldi. Xodimlar kasaba uyushmasi raisi A.M.Mannonov ham professor-o'qituvchilarini bayram bilan qutladi. Shundan so'ng institut-

ning iqtidorli talabalari tomonidan ustozlar uchun sahnalashtirgan badiy qismiga navbat berildi.

Dastur davomida kasb fidoyilariga esdalik sovg'alari topshirildi. Tadbir so'nggida Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha prorektor M.Ahmedova tomonidan 1-oktabr – “Ustoz va murabbiylar kuni” barcha kafedrlarda keng nishonlanishi, faxriy professor-o'qituvchilarning holidan xabar olinishi, ular va talabalar o'rtasida davra suhbatlari tashkillashtirib borilishi haqida kelishib olindi.

Marhabo ABDUHAMIDOVA

BERDAQ POYIDAGI MUSHOIRA

Shunday umrlar borki, abadiyatga daxldor. Ular qoldirgan ma'naviy meros asrlar ortidan bo'y tizib kelayotgan asrlarga-da mash'al bo'lib, avlodlar qalbini yog'duga cho'lg'aydi. Ilmni, odamoylikni qadrlagan har bir yo'lovchi yo'lini yoritayotgan yog'du egasi xotirasi oldida qarzdorlik tuyadi, siyosiga ehtirom ko'rsatadi. Shunday ma'naviy xazina egalaridan biri Berdaqqidir.

2022-2023-o'quv yilida Toshkent pediatriya tibbiyot institutiga biriktirilgan Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaqning hayoti va ijodini

targ'ib etish bo'yicha tadbirlar rejası ishlab chiqildi. Rejaga ko'ra har hafta davomida kafedra professor-o'qituvchilari va talabalar ishtirokida Adiblar xiyobonida ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy tadbirlar tashkil etilmoqda. Jumladan, 13-sentabr kuni Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasи, 20-sentabr kuni Jamoat salomatligi, sog'liqni saqlashni boshqarish va tashkil etish kafedrasи, 27-sentabr kuni Anatomiya, patologik anatomiya kafedrasи professor-o'qituvchilari va talabalar ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy uchrashuv o'tkazildi. Tadbirda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Harbiy vatanparvarlik va o'quv-metodika bo'limi rahbari, shoira Ma'mura Zohidova qatnashdi. Uchrashuvda professor-o'qituvchilar tomonidan Berdaqning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumotlar keltirildi, talabalar tomonidan Berdaq qalamiga mansub she'rlardan o'qildi.

29-sentabr kuni Adiblar xiyobonida joylashgan Alisher Navoiy haykali poyida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi jamoasi, ijodkorlar, poytaxtimizdagи olyi ta'lim muassasalari rahbariyati va talabalar jam bo'lishdi. Tadbirda xiyobonda siymosi gavda-

lantirilgan ijodkorlar haykallariga biriktirilgan oliy ta'lim muassasalari ga kitob topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Xususan, Toshkent pediatriya tibbiyot institutiga ham 400 dona kitob sovg'a qilindi. Tadbir so'nggida ulug' adib Berdaq haykali poyida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti talabalari mushoirani davom ettirishdi.

Davra suhbatida talabalarga institut Yoshlar masalalari bo'yicha prorektori Muborak Ahmedova va ilmiy-ijodiy maslahatchi Dilafro'z Choriyevalar qoraqalpoq adabiyyotining yirik vakili Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaqning hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha institutda ta'sis etilgan ko'krak nishon va stipendiya bo'yicha ma'lumot berib o'tishdi. Tadbirda aytib o'tilgan ma'lumotlar va ustoz ijodkorlar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, Xalq shoiri Sirojiddin Sayyid, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Yoshlar masalalari bo'yicha rais o'rinosari, shoir Botir Ergashev, filologiya fanlari doktori, professor Rahimboy Jumaniyozovlar bilan ijodiy uchrashuv talabalar qalbida katta taassurot qoldirdi.

Hasan ABIDOV



ENG MUQADDAS KASB EGASI

Maqsad sari ilk qadam

Elmira Amanullayevna katta oilada ulg‘aydi. Bu oila hamisha mustahkam va ahil bo‘lgan. Bobosi doim oilaning izchil ta’minotchisi hisoblanar, buvisi tufayli xonadon fayzli, osoyishta, undagi barcha insonlar mudom ichki tartib-qoidaga rioya qilishar edi. Buvijonising bag‘rikengligi, xotirjamlligi va mehri nevaralariga ham o‘tgan. Bugina emas, Elmira Amanullayevna yoshligidan shifokorlik kasbiga havas bilan qarar va shifokor bo‘lishni orzu qilardi. O‘z navbatida bувijonisi qalbida ham to‘ng‘ich nevarasining shifokor bo‘lish istagi yashirin edi. Bir kuni esa bувijoni betoblanib, boshlari tez-tez og‘riydigan bo‘lib qoladi. Oila a‘zolarning barchasi noxush kayfiyatda, bувijonning sog‘ligi uchun xavotirda edilar. Ana shunday kuchli og‘riq paytida tez yordam chaqirishadi. Tez yordam mashinasida oq xalat va oq qalpoq kiygan shifokor kelib, bувijonga anestezik igna sanchqi qilgach og‘riq qoladi. Shifokor ketgach, bувisiga ich-ichidan achingan Elmira “Bувijon, xavotir olmang, tez orada o‘zim sizni davolayman, shifokor bo‘laman”, deydi. Bu qizaloqning shifokorlik kasbini tanlash maqsadidagi eng jiddiy sabab va ezgu orzu edi. Qanday bo‘lmasin, tezroq shifokor bo‘lishni orzu qilgan Elmira mакtabda ham biologiya va kimyo fanlariga qattiq tayyorlana boshlaydi.

Oliygoҳ

Shunday qilib Elmira Pediatriya institutiga o‘qishga kirdi. Maktabdagi bilimlarning mustahkam asosi unga ham yaxshi o‘qish imkoniyatini berardi.

Institutdagi kimyo, anatomiya, fiziologiya fanlaridan ta’lim beradigan ustozlari ham kuchli mutaxassislar, mohir pedagoglar edi. Bir kuni fiziologiya darsida Brusilov degan o‘qituvchi auditoriyaga tirik qurbaqani olib kiradi. Uni kesib, ichki a‘zolarining tuzilishi haqida so‘zlash kerak edi.

Bu ishni bajarishga barcha taba majbur. Elmira bu jarayonni bajarishdan o‘zini olib qochmoqchi bo‘ladi. Shunda ustozи unga qarab: “Agar bu ishni hozir bajarsang, sen uchun tibbiyotda hech narsa qo‘rqinchili bo‘lmaydi”, – deydi. Elmira zo‘rg‘a, o‘zini majbur qilgan holda qo‘liga skalpel oladi. Kursdoshlari yordamida amaliyotni bajaradi. So‘ng ustoziga sinovchon nazar bilan qaraydi va “Mana endi ukollarni aslo qo‘rqlay qilishingga ishonaman”, – deydi.

Elmirani klinik fanlar hamisha qiziqtirar edi. Bu fanlarni o‘tganda u o‘zini shifokorday tasavvur qildi. Institutni bitirish arafasida Elmira qanday shifokor bo‘lish haqida ko‘p o‘ylar edi. Axir tibbiyotning tor sohalari ko‘p-ku. Bu ikkilanishlar va tanlov qiyinchiligining guvohi bo‘lgan dadasi qiziga maslahat beradi: “Pediatrlikni tanlasang-chi! Ammo pediatr bo‘lsang, eng yaxshisi bo‘l!” Dadasining tavsiyasini yana bir bor o‘ylab ko‘rgan Elmira shu sohani tanlaydi.

Ordinatura

O‘qishni bitirgach Elmira poliklinikada ishlaydi va shu yillari turmushga chiqadi. Uning turmush o‘rtog‘i Moskvadagi konchilak instituti aspiranturasiga o‘qishga kiradi.

Elmira hujjatlarini Moskvadagi Pediatiriya markazi ordinaturasiga topshiradi va o‘qishga qabul qilinadi. Bu o‘qish yillarini u hayotidagi eng baxtli davr deb hisoblaydi. Mahoratlari mutaxassislar bilan ishslash, ulardan ta’lim olish, tajribasini o‘rganish haqiqiy baxt edi.

Bo‘lajak kasbning amaliy asosini Elmira Amanullayevna Moskvada ham mustahkamladi. U yerda ham o‘qydi, ham bolalarni davolaydi. Ammo Moskva shahridagi ota-onalar Toshkentdagilardan ancha farq qilishar, talabchan edi. Bir kuni Elmiranining yoshligidan foydalangan bir bemor bolaning onasi bolasi tuzalmayotgani va hali ham yo‘tayayotgani shikoyati bilan da’vo qila boshladi. Shunda Elmira yordam-



ga katta yoshli, tajribali hamshira keladi. U onaning nohaqligini, bola ancha yaxshi bo‘lganini, shifokor tavsiyalari butkul to‘g‘ri va samara berayotganini aytib, bemor bolaning onasiga munosib javob qaytaradi.

Shunda Elmiranining ko‘ziga ko‘makka kelgan hamshira ayol farsihta bo‘lib ko‘rinib ketadi. Unga minnatdorligini aytadi. Axir yosh shifokorning tajribasi deyarli yo‘q edi.

Klinik ordinaturada o‘qish jarayonida u Rossiya Federatsiyasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Vladimir Kirillovich Tatochenkoning o‘quvchisi bo‘ladi.

Bu katta imkoniyat edi. Ustoz rahbarligida u nafaqat mutaxassislik, balki hayot maktabini ham o‘taydi. Dissertatsiya yoqlagandan so‘ng Elmira Amanullayevna o‘zining joyajon institutiga qaytadi. So‘ngra orttirgan bilimlarini talabalarga ularishsga kirishdi.

Ustoz ilmi

Elmira Amanullayevna uchun uning Toshkentdagi va Moskvadagi ustozlardan o‘rgangan bilim zahiralari asosiy dasturul amal bo‘lib xizmat qilardi. Ular shogird ko‘zida eng yuksak namuna sifatida gavdalishar edi. Ayniqsa, Toshkent shifoxonasida bemor bolalarni davolashda O‘rta osiyo pediatriya instituti

Gospital pediatriya kafedrasasi o‘qituvchilari va uning mudiri I.A.Bodnyani yorqin misol sifatida keltirish mumkin edi. Ular o‘z ishining haqiqiy ustasi hisoblanishardi. Shu bilan birga mehribon ustoz ham edilar (Elmira Amanullayevna esa ularga juda ham o‘xshagisi kelar edi). Professor I.A.Bodnyaning bemor ko‘riklari, tahlillari va konsiliumlarning o‘zi katta mahorat maktabi edi. Kafedra xodimlarning anjuman va yig‘ilishlarda amaliyotchi shifokorlarga yangi klassifikatsiyalar, bemorlarni davolashdagi turli yondoshuvlarni qanday yetkazishlarini Elmira ko‘p eslaydi. I.A.Bodnyaning bir ko‘rigi ayniqsa uning xotirasida yaqqol muhrlanib qolgan.

Bir bemor bolakay kasalxonada anchadan beri davolanar edi. Bola ham, ota-onalari ham ezilib ketishgandi. Bemor ko‘p in’eksiya, tomchi dori qabul qilayotgan bo‘lsa-da istmasi tushmayotgan edi. I.A.Bodnya bolakayni ko‘rgach, onasi bilan suhbatlashadi va birdan “Kelinglar, barcha antibiotik va tomchi dorilarni to‘xtataylik, bolaga kasallikni yengishiga imkoniyat beraylik”, – deydi. Shifokorlar xayron bo‘lishadi, ammo professorning qaroriga qarsi chiqishmaydi. Bir necha kundan so‘ng bolakayning holati haqiqatdan ham yaxshilanadi va u sog‘ayib, uyiga qaytadi. Bu voqeaga Elmira Amanullayevnaga har doim davoda tarozining bir pallasiga “foydasi”, ikkinchisiga “zarar”ni qo‘yishni o‘rgatdi.

Talabalar

Bu voqeaga ancha yillar bo‘ldi. Elmira Amanullayevna anchadan beri Toshkent pediatriya tibbiyot institutida dars beradi. Ko‘pincha talabalarga shunday deydi: “Bo‘lajak kasbingizni ota-onalaringiz tanlagan bo‘lishlari mumkin. Ammo siz eng omadli insonlarsiz. Bu kasb dunyodagi eng muqaddas kasb. Unga munosib bo‘ling”. So‘ngra Elmira Amanullayevna ularga shu voqeani so‘zlab beradilar: “Kunlardan bir kun darsimga talabalarimdan biri tayyolanmay keldi. Unga tanbeh bergen edim, baribir shifokor bo‘lmasligini,

bu kasb unga kerak emasligini aytди. Men indamadim. Faqat ichimda “Yer dumaloq, taqdir bir kuni uchrashtirar” dedim. Qarangki, safarlarimning birida uni viloyat shifoxonalarining birida uchratib qoldim. Unga suhabatimizni eslatganimda, yerga qarab qoldi. “O‘shanda yosh bo‘lganman-da”, – dedi”.

Institutimiz Elmira Amanullayevna uchun ikkinchi uy. Ular shu yerda oddiy assistentlikdan kafedra mudiriligidagi o‘sdlar. Nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qidilar.

Ko‘p yillar davomida institutting ilmiy kotibi lavozimida faoliyat ko‘rsatdilar. Bu vazifa esa ancha vaqtini olardi. Juda ko‘p hujjatlar tayyorlash, ilmiy kengash ishida qatnashish, institut o‘qituvchilari bilan ko‘plab suhbat va muloqotlar olib borish kerak edi. Shunda o‘qituvchilarning fazilatlari, ba‘zi salbiy tomonlari ham yorqin namoyon bo‘ladidi. Ammo Elmira Amanullayevna barchaga qo‘lidan kelgancha yordam berishga harakat qilardi. To‘g‘ri berilgan maslahat esa doim muhim. Qahramonimiz uchun bu faoliyat ham yana bir maktab rolini o‘ynadi desa adashmaydi. Bu sohadagi ustozlari Alimova Lola Abdurahmonovna edilar.

Ular bu vazifada ancha yillar ishlaganlar. Bir kuni Elmira Amanullayevna ularga vazifani topshirmoqchilagini, bu ish ancha vaqtini, kuchini olayotganini aytganida ular: “Institutda obro‘yingiz ancha baland. Bunday ishonch hammaga ham nasib bo‘lavermaydi. Ishlayvering, hammasi yaxshi bo‘ladi”, – dedilar.

Shuningdek, Elmira Amanullayevna ko‘p yillardan beri “Poliklinik pediatriya”, hozirgi kunda “Oilaviy shifokorlik” kafedrasining mudiri bo‘lib faoliyat ko‘rsatib kelmoqdalar. Undan oldin shu kafedraning assienti, dotsenti lavozimida ishlaganlar. Doim jamoalari jipslikda, ahillikda faoliyat yuritgan. Kafedra mudiri bo‘lib ishlagan paytlarida ham shu an‘ana saqlanib qolgan. Jamoa yoshlar bilan to‘ldirib borilgan, Elmira Amanullayevna esa bundan faqat

xursand bo‘lib, ularni ilmiy ishga jalgilishdan charchamaganlar. Bugungi kunda ham jamoalarida ham ilmiy, ham pedagogik salohiyati yuqori bo‘lgan kadrlar to‘plangan.

Qahramonimizni kafedra mudirligiga tayinlashganida ular o‘z doktorlik ishlari ustida tadqiqot olib bordilar. Ushbu ilmiy ishlarida ular bolajonlardagi zotiljam kasalligi etiologiyasida gemofiya infeksiyasingning muhimligini ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘ygan edilar. Zotiljam kasalligi esa yurtimizda yosh bolalar o‘limining sababchisi ekanligini hamma bilardi. Natijalar kasallikning oldini olishning yangi usuli emlash ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur ishi bilan Elmira Amanullayevna milliy profilaktik kalendarga Hib vaksina kiritilishini ilmiy asoslab berdilar. 2009-yildan esa O‘zRSSV buyrug‘i bilan bir yoshgacha bo‘lgan bolalarni shu vaksina bilan emlash amalga oshirila boshlandi.

Avtodlar

Elmira Amunullayevnaning qizi ham, kelini ham shifokor. Ona esa ularni hamisha o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishiga, ishslashdan charamaslikka o‘rgatadilar.

Elmira Amanullayevna Shamansurova hayotidagi eng quvonchli kun deb nevaralarining dunyoga kelgan kunlarini aytadi. Ularning ham shifokor bo‘lishlarini xohlaysilar. Eeng g‘amgin kun deb esa aziz insonlari – ota-onalari, turmush o‘rtoqlarining bu yorug‘ dunyoniga tark etган kunlarini eslaydilar.

Kelajakdagagi orzu-maqсади esa o‘z sohasida ishlarini davom ettirib, talabalarga ko‘proq bilim berish, o‘z kasbi va farzandlari hayotida munosib o‘rinda bo‘lish, ularning muvaffaqiyatlarini ko‘rish.

Qizlari kasb tanlashda ikkilib turganda, Elmira Amanullayevna ham otasidek, qiziga shifokorlik kasbini tavsiya etgandilar. Bugun qizlari kasb tanlovidan aslo afsuslanmayapti. Ular farzandlaridan yaxshi shifokor chiqishiga ishonadilar.

KELAJAK BIZNING QO'LIMIZDA

Orzular qanotida

Sarvinozdan uning tibbiyot sohasiga qanday qiziqib qolganini so'raganimda, otasining ish kabinetini esladi. O'shanda Sarvinoz 5 yoshli qizaloq edi. U kabinetga kirganda, otasining bemorlarni ko'rikdan o'tkazgani, anchagacha tomosha qilib o'tirgani hali ham esida.

O'sha payt dimog'iga urilgan evkalipt yog'ining hidi unga shunchalik yoqimli tuyulgan ediki, haligacha ifor bo'yini tuygandek bo'ladi.

Dadasi uning ko'ziga haqiqiy qahramonday ko'rinar, axir u og'riqdan yoki boshqa sabablar tufayli qynalayotgan bemorlarni davolab, sog'aytirib xonasidan chiqarar edi.

Yillar ketidan yillar o'tib borar, Sarvinoz esa shifokor bo'lish istagidan kechmasdi. U nafaqat ota-si, ko'pgina qarindoshlari tanlagan va shu soha bilan taqdirlini bog'lagan tibbiyot yo'lidan ketishiga ishonardi.

Ammo 9-sinfda orzusi birdan o'zgara boshladidi. Bunga sabab o'sha paytda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqi va Oliy Majlisini tomonidan tashkil etilgan ko'plab tadbirlarda Sarvinozning qatnashishi bo'ldi. Bu tadbirlarda u dunyo siyosati, jamiyat muammolari, gender tenglik kabi mavzularda ma'ruza qiladi va siyosat sohasini yoqtirib qoladi. Yana u, 15 yoshli qiz kattalar bilan barobar jamiyatimizning global muammolarini hal qilishga o'z hissasini qo'shayotganligi uning jamiyatga daxldorlik hissini os-hirar, yanada faol bo'lishga ilhomlan-tirardi. Unga volontyorlik va xayr-sahovat ishlari yoqib qoldi. Sarvinoz boshqa yoshlar bilan birga turli jamg'armalar tomonidan onkologik bemorlar va imkoniyati cheklangan insonlarga yordam berardi: ularni ruhan qo'llab-quvvatlash maqsadida, tengdoshlari bilan birgalikda ko'ngilochar tadbirlar, shou-dasturlarini tashkil qilishadi. Sarvinozning faolligi e'tibordan chetda qolmaydi va uni Yoshlar ittifoqiga suhbatga chaqirishadi.


Unda grant asosida, imtihonsiz Toshkent Pedagogika universitetida o'qish imkoniyati paydo bo'ladi. O'qishni tugatgach u o'z jamoatchilik faoliyatini davom ettirishi mumkin edi. Ammo bunday bo'lmadi.

Taqdir charxpalagi

Hozirgidek esida, suhbat 2020-yil 18-mart sanasiga belgilangan edi. 15-martda esa hamma omaviy axborot vositalari tomonidan Covid-19 tarqalishi tufayli karan-tin e'lon qilindi. Barcha tadbirlar, intervyu ham qoldirildi. Balki bu ham yuqoridaan bildirilgan ishora bo'lgandir...

Kovid tarqalgan paytda uning qarindoshlari, shifokor do'stlari, tibbiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar atrofdagi bemorlarga yordam berish istagini bildirdilar, og'ir ruhiy holat mayjud shifoxonalarda ish boshladilar. Barchasida bir maqsad: insonlarga biror foyda keltirish. Bundan tashqari Sarvinoz oilasiga yaqin bo'lgan kishilarning ko'pi va-fot etdi. Bu vaqealarning barchasi Sarvinoz ko'z oldida sodir bo'ldi va u jonli guvoh sifatida yaqin kishilarni yo'qotish og'riqlarni his qildi. Shunda u "Men shifokor bo'laman va insonlarni davolayman, yoshligimdag'i orzuimga sodiq qolaman", deb qat'iy qaror qildi. "Men nafaqat dadam izidan borib shunchaki oq xalat kiygan shifokor bo'laman, balki yurtimiz tibbiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shuvchi shifokor bo'laman", – deydi u.

Shunday ahdidan so'ng Sarvinoz kirish imtihonlariga qizg'in tayyorgarlik ko'ra boshladidi. Ammo u imtihonlarga tayyorgarlik ko'rgani sari atrofdagilar "Shuncha uzoq vaqt davom etuvchi o'qishga hujjat topshirish zarurmi?", "Tayyor imkoniyat turganida, tavakkal qilishning nima keragi bor?", "Pedagogika universitetiga topshir! Muddati ham kamroq ekan, qiz bola uchun o'qish muddati qisqaroq bo'lgani yaxshi", deyishar



va qabul qilgan qarori ahmoqona ekanligini qulog'iga singdirishga harakat qilishardi. Yana biologiya va kimyo bo'yicha testlar qahramonimiz uchun juda murakkab tuyulardi.

Ammo Sarvinoz hech kimga hech nima demay qabul ancha oldin boshlangan Rossiya oliv ta'lim muassasalarining biriga hujjatlarini topshiradi va o'qishga qabul qilinadi. Lekin Sarvinozning xursandchiligi uzoqqa cho'zilmaydi. Ota-onasi qizini uzoqqa yuborishni xohlashmasdi. Shunda o'ziga ishonchi ancha ortgan Sarvinoz hujjatlarini tibbiyot yo'nalishidagi respublika oliv ta'lim muassasalariga topshiradi. Birinchi bo'lib institutimizning Davolash ishi fakultetini tanlaydi. Sarvinozning ota-onasi uning o'qishga kirishiga niroyatda ishonishar va yonlarida bo'lishini xohlashar edi. Ayniqsa, ota-si uning talaba bo'lishini orzu qiladi, qizining tayyorgarlikdan so'ng dam olishi uchun hovlida arg'imchoq ham o'rnatadi. Niroyat Sarvinoz kutgan kun keldi va u imtihon topshirdi. 15 kundan keyin chiqishi kerak bo'lgan javoblar ancha kechikadi. Qizi asabiylashayotganini ko'rgan dadasi Pyatigorskdag'i tibbiyot institutida o'qish uchun kontrakt to'loving bir qismini amalga oshiradi. Chunki 23-sentabr sanasi to'loving oxirgi kuni edi. 24-sentabrda esa respublika oliv o'quv yurtlari bo'yicha qabul javoblari e'lon qilindi.

Sarvinoz o'zining o'qishga kirgan yo kirmaganligiga qiziqib nati-

jalarni yuklaydi va budjet asosida ToshPTIga qabul qilinganini ko‘radi. U avval xursandchiligidan qiyqiradi, keyin yig‘lab yuboradi. Axir u uddaladi, o‘z kuchi bilan budjet asosida o‘qishga qabul qilindi...

Institutdagi ta’lim

1-kursda o‘qish ancha murakkab edi. Pandemiya tufayli ta’lim masofaviy olib borildi. Ba’zi bir fanlar ni o‘zlashtirish qiyinroq kechardi. Ammo guruhdagi talabalarning inoqligi bu muammoni birgalikda hal qilishiga yordam berdi. Hech kim bir-biridan yordamini ayamasdi. Us-tozlar ham qayta tushuntirishdan, savollarga javob berishdan erinishmasdi.

Ammo eng qizig‘i telegramm kanalida institutdagi jamoatchi talabalarni uchratganidan keyin boshlandi. Atrofingda bu hayotda tengdoshlaridan ko‘ra ko‘proq natijaga erishishimi istagan insonlar bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Ular bilan birga yutuqlarga erishishga, orqada qolmaslikka harakat qilasan.

Bir kuni Sarvinoz Buxoro tibbiyat institutida o‘tkaziladigan onlayn anjuman haqidagi e’lonni ko‘rib qoladi, talabnama yuboradi va tanlovdan o‘tadi. Shundan keyin yurtimizda

o‘tkaziladigan boshqa ko‘plab anjumanlarda ishtirok eta boshlaydi. Ularda o‘zi mehr bergen siyosat va tibbiyotni uyg‘unlashtirib boradi.

Ammo Sarvinoz bir joyda to‘xtab qolgani yo‘q. Bugun dolzarb masalalarni hal qilishi uchun zamonaviy yechim zarurligi haqida o‘ylab qoladi. So‘ng texnologiyalar sohasida bilimini oshirib, dasturchilar bilan ayollar sog‘lig‘ini nazorat qiluvchi, o‘z ichiga anatomiya, ruhshunoslik fanlarini, ayollar salomatligi yuzasidan maslahatlarni qamragan “MedD” ilovani ishlab chiqishga kirishadi.

Shu bilan birgalikda Sarvinoz notiqlik san’atini ham yaxshi ko‘radi va bu qiziqishidan ham unumli foydalishni niyatida “Medikal volonturs” va “Asfleia” jamoalari bilan mакtab, litsey, tibbiyot yo‘nalishidagi oliygoohlarda salomatlik va birinchi yordam ko‘rsatish darslarini o‘tkazishadi.

Qanday shifokor bo‘lmoqchiman?

Bu savolni Sarvinoz o‘ziga har kuni beradi. Mana hozir 3-bosqichga o‘tdi. U otasidek otolarinolaringolog bo‘lish uchun uning klinikasida amaliyot o‘tmoqda, ular o‘tkazilgan operatsiyalar jarayonida ko‘p yangiliklarni bilib olmoqda. Otasining gapirayotgan har bir gapiga

e’tibor bilan qaraydi. Otasi esa har bir jarayonning ikir-chikirlariga-cha qiziga gapirib berishga harakat qiladi. Bugungi kunda u “Koxler implantatsiyasi” mavzusiga juda qiziqib qolgan. Ushbu implantant faoliyatni to‘xtatgan eshitish soha (patologik jarayon, tuk hujayralari hududida joylashgan) atrofdagi tvushlar, nutq signallari va musiqani ko‘proq fiziologik usulda qabul qilish imkoniyati uchun mo‘ljallangan. Ushbu yo‘nalish O‘zbekistonda endi rivojlana boshlagan va Sarvinoz sog‘liqni saqlashdagi ushbu muhim yo‘nalishni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shishni niyat qilgan.

Yana Sarivinoz Sobirjonovaning o‘z tengdoshlariga ba’zi bir tavsiyalari ham bor:

“Yangi ish boshlashga, o‘qish-o‘rganishga mahkam bel bog‘lang! Xato qilib qo‘ysangiz, uni tuzating, ammo tushkunlikka tushmang! Zero, qiyinchiliklarni yengibgina haqiqatni anglash va g‘alabaga erishish mumkin. Qizlarimizga esa orzulariga sodiq qolishlarini tilardim, maqsad sari to‘xtamay boring, o‘qing, bilim oling, o‘sing. Axir bo‘lajak avlod kelajagi sizning qo‘lingizda!”

Kaysar TURDIYEVA

ORZUM YO‘LIDA

Men yoshligimdan shifokor bo‘lishni niyat qilganman. Bunga sabab bir voqeа sabab bo‘lgan. 2-sinfga borgan paytlarim edi, chamasi oltmis yoshlardaga bir onaxonning yo‘lda sog‘liqlari yomonlashib qoldi. U dir-dir titrar, yuzlari oqarib ketgan, og‘zidan ko‘pik kelar, nafas olmayotgan-dek edi. Men juda qo‘rqib ketdim. Onaxonni hayotdan ko‘z yumyapti deb o‘ylaganman. Shu payt o‘sha yerdan o‘tib ketayotgan, 30 yosh-lardagi bir erkak ularga birinchi tez yordamni ko‘rsatdi. Shunda onaxon yana nafas ola boshladilar. So‘ng

tez tibbiy yordam mashinasi keldi. “Yaxshi hamki, onaxonga yordam beribsiz”, deyishganda, u odam “Men shifokorman, odamlarning hayotini saqlab qolish – mening vazifam”, deb javob berdi. Shunda men o‘zimga-o‘zim katta bo‘lsam, albatta shifokor bo‘laman, deb so‘z bergenman.

Oradan yillar o‘tdi, 11-sinfni ham tugatdim. Bir kuni qo‘shnimiz Dildora opanikiga ovqat olib chiqdim, turmush o‘rtoqlarining tobi qochib qolganini ko‘rdim. Bir soatdan beri tez tibbiy yordam mashinasi kelmayotgan ekan. Tax-

minan yana yarim soatdan so‘ng tez yordam mashinasining ovozi eshitildi. Agar o‘sha kuni shifokorlar yana o‘n daqqa kech qolishganda, Dildora opaning turmush o‘rtoqlari, Baxtiyor aka yurak hurujidan vafot etgan bo‘lar edilar.

Men insonlarga o‘z vaqtida yordam beruvchi, ularni davolashga doim tayyor turuvchi shifokor bo‘lmoqchiman. Shu orzumga yetish uchun harakat qilaman.

**Gulshoda SHERMATOVA,
“Davolash ishi” fakulteti
1-bosqich talabasi**

INSTITUTIMIZGA 400 DONA KITOB SOVG‘A QILINDI

29-sentabr kuni Adiblar xiyobnidagi Alisher Navoiy haykali poyida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi jamoasi, ijodkorlar, poytaxtimizdagi oliy ta’lim muassasalari rahbariyati va talabalar jam bo‘ldi. U yerda adiblar haykallariga biriktirilgan oliy ta’lim muassasalariga kitoblar topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tantanali marosimda Toshkent shahridagi 24 ta oliy ta’lim dargohlari va bu yerdagi adiblar haykallarini yaratishda bosh-qosh bo‘lgan O‘zbekiston Badiiy akademiyasiga O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan chop etilgan jami 10000 dona badiiy kitob topshirildi.

Ma’lumki, davlatimiz rahbari Adiblar xiyoboniga tashrifi chog‘ida bu maskanda “Adabiyot – xalqning yuragi” shiori ostida adiblar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ma’naviyatma’rifiy, adabiy tadbirlar o‘tkazish lozimligini ta’kidlagan edi.

– Ayni damda yoshlарimizning she’r o‘qishlarini, adabiyotga chanqoqligini ko‘rib behad xursand bo‘lib turibman, – dedi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid. – Bugungi tashabbusimizni yaxshi an’ana sifatida boshladik va maqsadimiz yoshlarni kitobxonlikka chorlash, mutolaa madaniyatini oshirishdir. Boisi, zamonamizda kitobxonlik davri odimlamoqda. Al-batta, bundan keyin ham Yozuvchilar uyushmasi tomonidan nashr etilgan kitoblardan oliy ta’lim muassasalariga yetkazib boramiz, Jamiyatimiz-



ga ma’naviyatli, ma’rifatli mutaxassislar yetishib chiqishida biz ham mas’ulmiz, ko‘makdoshmiz, – deya so‘zini muxtasar qildi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi.

Ushbu ezgu maqsadlar ijrosi yuzasidan haykallari o‘rnatalgan 25 nafar ijodkorning adabiy merosini o‘rganish, keng targ‘ib qilish borasida poytaxtimizdagi oliy ta’lim dargohlariga biriktirib berildi. Hozirda haykallar poyida ta’lim maskanlari tomonidan adabiy uchrashuvlar o‘tkazish an’anaga aylandi.

– O‘tgan ikki yil mobaynida Adiblar xiyobonida oliygochlari, ijodkorlar ishtirokida o‘tgan minglab tadbirlarning guvohi bo‘ldik, – dedi Toshkent Davlat pediatriya instituti Yoshlar masalalari bo‘yicha prorektori Muborak Ahmedova. – Yozuvchilar uyushmasi tomonidan 10 000 dona badiiy kitobning bepul topshirishi yoshlari uchun katta tuhfadir. Xususan, bizning institutimizga ham 400 dona kitob sovg‘a qilindi. Institutimizda Berdaq ijodini keng va

chuqur o‘rganish ishlari olib borilm-oqda. Iste’dodli talabalarimizning ilmiy-ijodiy ishlarini jamlab, kitob holida nashr ettiryapmiz. Bugungi tadbirda institutimiz talabalar ham faol ishtirok etyapti. Ularning bu kitob bayramidan olgan taassurotlari olam-olam”, – deya Muborak Ahmedova so‘ziga qo‘srimcha qildi.

Tadbir adabiyot, kitob bayramiga aylanib ketdi. Unda talaba yoshlari kitobxonlikka ishtyoqi baland ekanini namoyon etdi. Ustoz shoirlar boshlab bergan she’r jarangi talabalar mushirasiga ularни ketdi.

Tadbir so‘ngida ulug‘ adib Berdaq haykalining poyida Toshkent pediatriya instituti talabalarini mushoirani davom yetirishdi. Davra suhabatida talabalarga institut Yoshlar masalalari bo‘yicha prorektori Muborak Ahmedova va ilmiy-ijodiy maslahatchi Dilafro‘z Choriyevalar Qoraqalpoq adabiyotining yirik vakili Berdaqning hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha institutda ta’sis etilgan ko‘krak nishon va stipendiya bo‘yicha ma’lumot berib o‘tishdi. Tadbirda keltirilgan ma’lumatlar va ustoz ijodkorlar O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, Xalq shoiri Sirojiddin Sayyid, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Yoshlar masalalari bo‘yicha rais o‘rinbosari, shoir Botir Ergashev, filologiya fanlari doktori, professor Rahimboy Jumaniyozovlar bilan ijodiy uchrashuv talabalar qalbida katta taassurot qoldirdi.

**Dilafro‘z CHORIYEVA,
Berdaq hayoti va ijodi bo‘yicha
ilmiy-ijodiy maslahatchi**



NAVOIY TILIM



*Amir Temur, Fitrat, Bobur iziman,
Bobom Mashrab, Qodiriyning so'ziman.
Men o'zbekman, To'marisning qiziman,*

*Yuksalishing ko'rib yayraydi dilim,
Janglarda o'lмаган NAVOIY TILIM!*

*Tafakkur gulshani so'z ochsa sendan,
Ta'rifing buyukdir so'rasha kimdan.
Seni hech kim tortib ololmas mendan,
Sendan o'rnak oldim o'rganib ilim,
Janglarda o'lмаган NAVOIY TILIM!*

*Gulxaniy, Ogahiy, Lutfiy, Atoiy,
Senda so'z bitganlar hazrat Navoiy.
Ishqinda mast bo'lib o'tdi Avloniy,
Nurafshon aylading yoritib yo'lim,
Janglarda o'lмаган NAVOIY TILIM!*

*Yov keldi qarshingga qilich ko'tarib,
Qancha davlat buzib, davlat to'ntarib.
Sen chiqding ularning ko'ksin itarib,
Zulmatlar bag'rida so'lмаган gulim,
Janglarda o'lмаган NAVOIY TILIM!*

*Seni bilmaganlar yomondan yomon,
Millatim qonida yashaysan hamon.
Baxtimga bor bo'lgin hamisha omon,
Senga ta'zimdamani, ko'ksimda qo'lim,
Janglarda o'lмаган NAVOIY TILIM!*

**Mardona TOSHMATOVA,
"II pediatriya" fakulteti
108-guruh talabasi**

TILBUZARLARGA



*Ona tilim – qalbim tili bu,
Ona tilim – xalqim tili bu.
Men o'rgandim uni onamdan,
Asrang uni besfarg, beg'amdan.*

*O'zbekda yo'q "noweъ" degan so'z,
O'zbekda yo'q "coweъ" degan so'z.
Ona tilim – bu iymon tili,
Ona tili – bu vijdon tili.*

*Qaydan keldi tag'in – "молодец"?"
Maqtanasan: yedim "холодец",
Rahmat degan yaxshi so'zing bor,
Ona tiling boy va betakror.*

*Jonim bolam, tiling buzmagin,
Va tartibsiz gaplar tuzmagin,
Go'zal so'zlab ko'ngilni yorit,
Va qalblardan dardlarni arit.*

*Sen dillarni qilmagin xira,
Ona tiling buzmagin sira,
Tiling bor-ku, tilsiz bo'lugin,
Ona tilsiz qolib so'lugin.*

**Erkin TURSUNOV,
"Gistologiya" kafedrasi professori**



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e'lon qiladi:

PROFESSORLAR: Xirurgik kasalliklar.

DOTSENTLAR: Oilaviy shifokorlik №1; Sud tibbiyoti, tibbiyot huquqi; Yuqumli kasalliklar; Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi; Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi; Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya, psixoterapiya; Bolalar onkologiyasi.

KATTA O'QITUVCHILAR: Ijtimoiy fanlar; Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya, psixoterapiya; Fiziologiya.

ASSISTENTLAR: Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari; Oilaviy shifokorlik №1; Patologik fiziologiya; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ; Mikrobiologiya; Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi; Bolalar kasalliklari propedevtikasi.

Tanlov muddati – e'lon chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog'ishamol ko'chasi 223, Tosh PTI.

Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekti. 12.10.2022.

<p>PEDIATR TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRIYI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИУТА</p>

<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A. Nosirov, Nashr uchun mas'ul: Sh. Abduhoshimova</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o'rincbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, H. Abidov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>
---	---

<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxtarga olingan.</p> <hr/> <p>Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223</p> <hr/> <p>"XALQ NASHRIYOTI" XKda chop etildi. Manzil: Toshkent sh., Qorasaroq ko'chasi, 316 uy. Tel.: (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02. buyurtma adadi 110 nuxxa, qog'oz bichimi A3.</p> <hr/> <p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
--